FARG‘ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 19 - iyun 92-11-154-Q/24 Buvayda tuman hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida Buvayda tumanida har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida

Farg`ona viloyati Buvayda tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo`limining 2024-yil 10-maydagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida, tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida”gi 185-sonli murojaatiga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o`rta ta’lim to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandi va “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN

1. Buvayda tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo`limining 2024-yil 10-maydagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida”gi 185-sonli murojaati ma’qullansin.

2. Buvayda tuman Maktabgacha va maktab ta’limi tasarrufidagi har bir ta’lim muassasalariga hudud va mikrohududlarga biriktirish jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (M.Isroilov) bo‘lim tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablariga hudud va mikrohududlar belgilanishi munosabati bilan belgilangan tartibda o‘quvchilarni umumta’lim maktablar quvvati darajasida qamrab olishni tashkillash, ota-onalar bilan tegishli tartibda tushuntirish ishlarini olib borish, malakali o‘qituvchi pedagoglar bilan

ta’minlash hamda yetarli shart-sharoitlar yaratish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bilan tumandagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining mikrohududlar biriktirilishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 13-dekabr kungi 221-11-154-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Tuman hokimligi matbuot kotibi (A.Shokirov), “Buvayda ko’zgusi” gazetasi tahririyati (A.Soliyeva) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.


7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o`rinbosari G.Mamajonov hamda tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi boshlig’i M.Isroilovlar zimmasiga yuklatilsin.


Tuman hokimi **IBRAGIMOV BEXZOD.ODILJONOVICH**


Buvayda tuman hokimining
2024-yil 19-iyundagi
92-11-154-Q/24-son qaroriga
1-ilova


Бувайда туман мактабгача ва мактаб таълими бўлими тасарруфидаги таълим муассасаларининг микроҳудудлари тўғрисида

МАЪЛУМОТ











Buvayda tuman hokimining
2024-yil 19-iyundagi
92-11-154-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Buvayda tuman hokimining “**Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida Buvayda tumanida har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida”gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi yuzasidan

M A ’ L U M O T N O M A

10.06.2024 yil qishlog`i — Yangiqo`rg`on

Buvayda tuman hokimining **“Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida Buvayda tumanida har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida” gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi o`rganib chiqildi.

Loyiha “O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o`rta ta’lim to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandi ga asosan ishlab chiqilgan.

Buvayda tuman hokimining **“Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida Buvayda tumanida har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida” gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi Adliya Vazirligi tomonidan 18.11.2021 yilda 3333-raqam bilan ro`yxatdan o`tkazilgan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish,yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o`tkazish qoidalarini tasdiqlash to`g`risida”gi 15.11.2021 yildagi 19-mx sonly buyurug`i va qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan deb hisoblayman.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 apreldagi “O`zbekiston

Respublikasi Adliya Vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy sora-tadbirlar to`g`risida”gi qarorining 4-bandiga asosan normativ huquqiy hujjatlar loyihasi tuman hokimligi tomonidan 23.05.2024 yilda O`zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga jamoatchilik muhokamasi o`tkazilishi uchun joylashtirilgan. Qaror loyihasida jamoatchilik muhokamasi natijalari e’tiborga olingan.

Buvayda tuman hokimiining mazkur qarori qabul qilinishidan oldin O`zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yildagi O`RQ-682-sonli “Normativ huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi Qonunining 26-moddasiga ko`ra mazkur normativ tusga ega bo`lgan ushbu qarori loyihasini qonunchilik talablariga muvofiq ekanligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o`tkazishlik uchun Buvayda tumani Adliya bo`limiga taqdim etish lozim bo`ladi.

Loyiha O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq.

Buvayda tumani hokimligi yuriskonsulti B.Raxmonov

Buvayda tuman hokimining
2024-yil 19-iyundagi
92-11-154-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Buvayda tuman adliya bo`limi boshlig`i N.Ismoilovga

Buvayda tuman hokimining **“Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida Buvayda tumanida har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida” gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi O`zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yuidagi “Normativ huquqiy xujjatlar to`g`risida”gi Qonunining 26-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o`tkazib berishingizni so`rayman.

Buvayda tuman hokimi **B.Ibragimov**